

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “OTNING EGASI” HIKOYASIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI

Sh. R. Qozaqova

*NamDPI O‘zbek tili yo‘nalishi magistranti
1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hayotiy yo‘li va ijodiga nazar tashlanadi. Shuningdek, “Ot egasi” hikoyasidagi Inodning tabiatga va jonli mavjudotlarga bo‘lgan muhabbati yoritiladi.

Abstract: The article looks at the life and work of Shukur Kholmirzayev. It also covers Inod’s love for nature and living creatures in the story *The Horse Owner*.

Kalit so‘zlar: Surhondaryo , Boysun, hikoya , Inod, Qishloq, maktab, ot, tabiat va inson

Keywords: Surhondaryo , Boysun, story, Inod, village , school, horse, nature and man

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-mart kuni Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug‘ilgan. 1963-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetini tugatgan. Yoshlar nashriyoti va bir necha gazetalarida muharrirlik qilgan. Sh. Xolmirzayevning hikoya va ocherklar to‘plamlari yillab respublika ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilina boshlagan. U qissalar yo‘nalishida ham tengdoshlariga nisbatan erta kirishgan. Yosh adibning hikoyalari “To‘lqinlar” (1963), “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” (1965) nomli qissalar ko‘plab muxlislar orttirishi bilan birga Abdulla Qahhordek ustozla e‘tiborini ham qozongan .

Yozuvchi roman roman janrida ham o‘z kuchini sinab “So‘ngi bekat ”

“Qil ko‘prik ” “Yo‘lovchi” “Olabo‘ji” “Dinozavr” kabi asarlar yozdi .

Yozuvchining adabiy ijodining turli janrlarida qalam tebratganiga qaramay, u o‘zbek adabiyoti tarixida avvalo, usta hikoyanavis sifatida qoldi. Uning “Olis yulduzlar ostida”, “O‘zbekning sodda o‘g‘li”, “Ora yo‘l”, “Odam”, “Cho‘loq turna” “Kimsasiz hovli”, “Bodom qishda gulladi ”, “Tog‘larga qor tushdi”, “Yashil niva”, “Xumor” singari hikoyalar yozgan .

Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar juda mohirona tasvirlangan. Ushbu asarda Inod va qora bayir oti bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Bizningcha, “Otning egasi” hikoyasi talqinini, avvalo, bosh qahramonga tanilgan ismi tufayli ishidan boshlash kerak. Harqalay, hamma kamdan-kam uchraydigan bu ism ma‘nosiga e‘tibor qaratgan bo‘lsa kerak. Inod — arabchadan olingan bo‘lib,

“cho’rtkesar”, “qat’iyatli”, “qaysar” ma’nolarini beradi. Agar oldindan shuni bilib hikoya voqealariga razm solsak, muallif aytmoqchi bo’lgan muhim haqiqatni g’oyani chuqurroq his qilamiz .

Asar muqaddimasi va oxirida alohida ta’kidlanganidek, Inodning hech narsaga alishmaydigan, boyliklari ko’ngil mulki bor. Garchi otasidan juda erta xoti va farzandlaridan fojiali tarzda ayrilgan bo’lsada , ulardan yodgor judolik taftini bosib turadigan qilog’i maktabi xamda qorabayir oti unga madad . Qorabayirga qarab faqat “zo’r” tulporni ko’rayotgan kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyev uchun esa Inodning ko’ngli unda kechayotgan tuyg’ular begona . Birovning mulki - u Molini o’zlashtirishdan vijdoni qiyalmaydigan bu kimsa endi o’sha birovning ko’ngil boyligiga ham changal solmoqni xohlaydi.

Garchi tog’ qishloqlarning katta- kichigi bolalariga mualliflik qilsa-da, tabiatan sodda va ishonuvchan Inod chiroyli gaplardan, kitobiy so’zlardan nihoyatda yiroq. Uning tilga chiqarib ayta olgani: „Men baribir otimni bermayman. U menga juda qadrdon bo’lib qolgan . U meni juda qadrdon bo’lib qolgan. Otni bersam kunim qattiq bo’ladi , Egamberdi . Otamdan yodgorlik . Er yigitning oti bo’lishi kerak der edilar . Shu ot ... mening og’ir kunimga yaradi ” - degan gaplar bo’ladi , xolos

Biz yuqorida Shukur Xolmirzayevning tabiat manzaralarini , hayvonot va o’simlik dunyosini nihoyatda tiniq , ichdan his etib tasvirlay olish qo- biliyatini ta’kidlagan edik. Buning tasdig’i uchun hikoyadan kichik bir parchani tahlil qilamiz : „, Egamberdiga Inodning harakatlari juda sirli ko’rinib , ko’ngliga vahima tushdi . „Nima qilmoqchi o’zi u " - deb orqasidan qarab qoldi . So’ng ko’m-ko’k yongichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagi odatdagi arg’umoqlaridan keng o’mrovini kerib va odatdagi chopqir otlarnikidan ingichka oyoqlarini yerga qattiq tirab turgan qorabayiriga qaradi. Uning ko’zlariga ko’zi tushib eti jimirlab ketdi. Ot xuddi dahshatli bir xavfni sezgandek olayib , egasi kirib ketgan uyga qarar , hayratda qotgan antiqa haykalga o’xshar edi. "Yopiray" - dedi Egamberdi va xona eshigida Inodning qorasini ko’rdi .Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi. "Nima qilmoqchi o’zi u " - degan savol ayni o’sha o’tda nafaqat Egamberdining aqlida balki qorabayirning ham g’ayrshuurida chaqmoqdek chaqnadi. Yuqorida ta’rifni berganimiz Egamberdidon farq qilaroq. Inodning fe’lini juda yaxshi bilgan ot , o’z egasining dahshatli qarorga kelganini ichki sezgisi bilan birdan his qiladi. Shu tufayli ham uning ko’zlariga ko’zi tushgan Egamberdining eti jimirlab ketadi. Bo’lajak fojiadan voqif bo’lgan jonivor ichidan o’tgan xislar to’lqini esa o’quchiga birgina gapda to’la sezdiriladi : "Ot birdan titroq tovuchdan kishnab yubordi".

Xulosa: Shukur Xolmirzayev asarlarini o’qib so’ng yozuvchi voyaga yetgan Surxon vohasiga , Boysun tog’lariga bepayon dashtlarga qadami tushgan kishi undagi manzara ,

rang baranglikni ko‘radi, ajib oxanglarni eshitadi, ularning hammasini ana shu yuragida, hayot, tiriklik topib turgan tabiatning issiq bag‘ridan olinganini baralla sezadi . Shukur Xolmirzayev "Ot egasi" hikoyasida tabiatga va qorabayir otiga nisbatan cheksiz muhabbatini katta mohorat bilan tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Xolmirzayev, "Ot egasi" hikoyasi.
2. Mirvaliyev Y. "O‘zbek adiblari" J. "Yozuvchi"
3. Doniyorova Sh. Xolmirzayev hikoyalarining badiiy uslubiy o‘ziga hosligi . Filol. fanlari nomzodi... diss avtoref. - Toshkent. 2000